

## TIBBIYOT XODIMLARINING SOTSIAL-PSIXOLOGIK KOMPETENTLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI IJTIMOY - PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Hikmatov Akmal Sadulloevich  
Buxoro davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

*Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiyot xodimi faoliyatida sotsial-psixologik kompetentlik omillarini namoyon etuvchi va rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni aniqlash hamda tibbiyot xodimlari sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari tibbiyot xodimlari sotsial-psixologik kompetentligi va uning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishga oid tadqiqotlar olib borilgan. Shuningdek tibbiyot xodimlari sotsial-psixologik kompetentligini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar va mexanizmlarni aniqlangan, shifokorlarda sotsial-psixologik kompetentlik hamda sotsial intellektni o'zaro aloqadorligini aniqlash va asoslash bo'yicha so'z yuritilgan.*

*Kalit so'zlar: sotsial-psixologik kompetentlik, ijtimoiy refleksiya, empirik tahlil, adekvat muloqotchanlik, adekvat emotsional munosabat, kommunikativ kompetentlik, kompetentlik omillari.*

## ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКУЮ КОМПЕТЕНТНОСТЬ МЕДИЦИНСКИХ РАБОТНИКОВ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

Хикматов Акмал Садуллоевич  
Исследователь Бухарский государственный университет

*Аннотация. В данной статье разработаны рекомендации по выявлению социально-психологических механизмов, проявляющих и развивающих факторы социально-психологической компетентности в деятельности медицинского работника, а также по развитию социально-психологической компетентности медицинского работника. Кроме того, были проведены исследования по изучению социально-психологической компетентности медицинских работников и факторов, влияющих на ее формирование. Выявлены социально-психологические факторы и механизмы, формирующие социально-психологическую компетентность медицинских работников, даны рекомендации по выявлению и обоснованию взаимосвязи социально-психологической компетентности и социального интеллекта у врачей.*

*Ключевые слова: социально-психологическая компетентность, социальная рефлексия, эмпирический анализ, адекватная коммуникативность, адекватный эмоциональный отклик, коммуникативная компетентность, факторы компетентности.*

## SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF FACTORS AFFECTING THE SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL COMPETENCE OF MEDICAL PERSONNEL

Hikmatov Akmal Sadulloevich  
Bukhara State University Researcher

*Annotation. In this article, recommendations have been developed on the identification of socio-psychological mechanisms that manifest and develop factors of social and psychological competence in the activities of a medical worker, as well as the development of social and psychological competence of medical workers. In addition, research has been carried out on the study of the social and psychological competence of medical personnel and the factors that influence its formation. Also identified the socio-psychological factors and mechanisms that shape the Social-Psychological competence of medical workers, the doctors talked about social-psychological competence and the identification and justification of the interaction of social intelligence.*

*Key words: social-psychological competence, social reflection, empirical analysis, adequate communication, adequate emotional attitude, communicative competence, competence factors.*

*Kirish. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida jahonda e'tirof etilgan bir qancha yutuqlarga erishildi. 2017-*

2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko‘rsatish qulayligi va sifatini oshirishga aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga tibbiyot muassasalarini moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga yo‘naltirilgan holda sog‘liqni saqlash sohasini eng avvalo, uning dastlabki bo‘g‘inini tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish” kabi vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni bajarishda tibbiyot xodimlarini sotsial-psixologik kompetentligini shakllantirishga oid tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, tibbiyot xodimlar faoliyatining individual-psixologik va ijtimoiy-psixologik komponentlari rolini to‘g‘ri belgilay olish uning kasbiy kamoloti uchun muhim omillarini o‘rganish va tadqiq qilish dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda, ushbu muammolarini psixologik tadqiq etish faoliyatining turli jabhalarini o‘rganishga erishganligini ko‘rsatsada, uning ijtimoiy-psixologik jihatlarini e‘tibordan chetda qoldirib bo‘lmazligini ham tasdiqlamoqda.

Adabiyotlar tahlili. Sotsial-psixologik kompetentlikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va unga ta‘sir qiluvchi psixologik omillar hozirgi kungacha bir qator xorij va mamlakatimiz olimlari tomonidan ko‘plab tadqiqotlar predmetiga aylangan. Robert Torndayk (Robert Thorndike) (1937), G.Gardner (intellektning ko‘p qirraliligi haqida yondashuvi, 1983), P.Selov va J.Mayer (emotsioanal intellekt atamasini fanda qo‘llay boshlaganligi), (1990), Daniel Goulman (Daniel Goleman «Emotional Intelligence» nomli kitobini nashr ettirdi 1995) kabi xorij olimlari o‘z tadqiqotlarida sotsial-psixologik kompetentlikka ta‘sir qiluvchi omillar va komponentlarini ochib berganlar.

Shuningdek, tibbiyot xodimlari sotsial-psixologik kompetentlik omillarini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari L.Matveyev, V.Guldan, V.Topolyanskiy, I.Ermakova, G.Abramova, A.Chijova, I.Kudinova, A.Dobrovich, V.Boykov, V.Myasnikov, A.Zaychenko, L.Svetkova, A.Chazova kabi rus olimlari tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan. V.Bextereva A.Lazurskiy M.Bayasova S.Frank o‘z tadqiqotlarida kasallikka ta‘sir qiluvchi psixologik omillarni va ularni bartaraf etishning kompleks psixologik chora-tadbirlarini ishlab chiqqanlar.

Sotsial-psixologik kompetentlik funksiyalarini yetarlicha shakllanganligi, shaxsda yuz berishi mumkin bo‘lgan voqea va hodislarni talqin qilishga, kelajakdagi hodisalarning bashorat qilishiga imkon beradi. Shu sababli shaxsning amaliy masalalarni hal qila olish, verbal va ijtimoiy munosabatlarga qobiliyatligi sotsial-psixologik kompetentlikning tarkibini tashkil etuvchi asosiy komponentlar hisoblanadi. Sotsial-psixologik kompetentlikning asosiy vazifalaridan biri - bu uzoq muddatli o‘zaro munosabatlarni shakllantirishdir. O‘zaro munosabatlarning darajasi va xarakterini tushungan holda kelajakda bir-biriga ijobiy ta‘sir o‘tkazish va munosabatlarni mustahkamlashdan iboratdir.

O‘tgan davr mobaynida jahon psixologiyasida sotsial-psixologik kompetentlik va uning shakllanishi muammosi bir qator tadqiqotchilarning e‘tiborini o‘ziga jalb etganligini kuzatish mumkin. Biz tadqiqotimizning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash borasidagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sotsial-psixologik kompetentlikning funksiyalari bo‘yicha izlanishlar olib borgan olimlar N.A.Menchinskaya, Albuxanova-Slavskaya, T.N.Karpovich, N.Zubrayeva va boshqalar sotsial-psixologik kompetentlikning funksiyalaridan biri sotsial intellekt ekanligini alohida e‘tirof etganlar.

Biz tadqiqotimizda sotsial-psixologik kompetentlik, uning sotsial intellekt bilan bog‘liqligi, strukturasi, unga nisbatan olimlarning yondashuvlari, sotsial intellektga bergan tavsiflari bo‘yicha olib borgan izlanishlari va ularning xulosalariga e‘tiborni qarotishni lozim topdik.

Psixologik manbalarda qayd etilgan ilmiy kuzatishlarga tayangan holda sotsial-psixologik kompetentlikning shaxsni jamiyatga, ya‘ni o‘zi yashayotgan, uning sotsial muhit vakili sifatida e‘tirof etiladigan muhitga moslashuviga; shaxslararo va kasbiy munosabatlarini samarali amalga oshirishga yordam beruvchi qobiliyatlar majmuasidir deyishimiz mumkin. O‘z navbatida, sotsial-psixologik kompetentlik atamasi boshqa kishilar bilan munosabatda, o‘zaro ta‘sirlashuv jarayonida o‘zini, xulq-atvorini, o‘zga kishilarni tushunish va samarali o‘zaro ta‘sirlashuvni amalga oshirish hamda qo‘yilgan maqsadga erishish o‘quvini rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Shuningdek, sotsial-psixologik kompetentlik shaxsning sotsiallashuvi, ta‘lim, madaniyatlararo kommunikatsiyani amalga oshirishda muhim o‘rin tutishini unutmazlik lozim.

Sotsial-psixologik kompetentlik va unga ta‘sir qiluvchi omillar borasida psixologik tadqiqotlar tahliliga ko‘ra, xorijiy va MDH mamlakati psixologiya maktablari vakillaridan bir qatorlarining olib borgan izlanishlarini keltirib o‘tish mumkin (Dj.Gilford, A.Piz, J.Piaje, G.Ollport, G.Gardner, E.Torndayk, V.Stolin, R.Sternberg, A.A.Bodalev, V.N.Drujinin, Yu.I.Emelyanov, T.N.Karpovich, I.B.Kudinova, V.N.Kunisina, D.V.Ushakov, A.L.Yujaninova va boshqalar).

Sog'liqni saqlash sohasida tibbiyot xodimlari sotsial-psixologik kompetentligini o'rni va ahamiyatiga bag'ishlangan rus olimlarini tadqiqotlarga murojaat qilsak, L.G.Matveyeva sotsial-psixologik kompetentlik yetuk bo'lishi uchun tibbiyot xodimlari belgilangan supervayzerlik trening dasturini o'zlashtirishi lozimligini uqtirib o'tadi. Shu jumladan muallif, Rossiyada tibbiyot xodimlari tayyorlashning muammolariga to'xtalib, sotsial-psixologik kompetentlikni tibbiyot xodimlari uchun muhim bo'lgan kasbiy komponent sifatida ta'riflaydi.

N.A.Kravsova o'z ilmiy tadqiqotlarida bemorga yondashishda, avvalo uning yoshi, xarakter xususiyatlariga alohida e'tibor berish lozimligini ta'kidlab o'tadi. Muallifning fikricha, tibbiyot xodimlarning kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish uchun avvalo ularni psixologik-tibbiy –pedagogik tuzilmasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

V.V.Guldan fikricha, poliklinikalarda tibbiy-psixologik kabinetlar va tibbiyot xodimlari uchun o'quvlar tashkil etilishi yuqori sifatli tibbiy yordam ko'rsatishni ta'minlaydi. Olim o'z tadqiqotlarida, sog'liqni saqlash tizimida tibbiyot xodimlari sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirish dolzarb muammolaridan biri ekanligini ta'kidlab, kundalik amaliyotida tibbiyot va psixologiyaning o'zaro ta'siri masalasiga alohida to'xtalib o'tadi.

Mazkur muammolar V.D.Topolyanskiy, N.L.Smirnova, Y.L.Nikolaev, A.I.Chijova, A.Megrabyan, tadqiqotlarida ham o'z aksini topgan.

Mutaxassislar fikriga ko'ra tibbiyot uchun psixologiyaning roli juda ham muhim ekanligi tan olinsada, sog'liqni saqlash tizimida faoliyat ko'rsatayotgan tibbiyot xodimlarining kasbiy va shaxsiy kompetentligining shakllanishi juda sekin sur'atlarda yuz bermoqda.

Aksariyat tibbiyot xodimlari asosiy e'tiborni kasallikning klinik ko'rinishi, laboratoriya va instrumental tadqiqot metodlari natijalariga qaratgan holda bemorga o'ziga xos individual-tipologik xususiyatlari, muomala doirasi, shaxslararo munosabatlar xarakteriga ega shaxs sifatida qaramaydilar. Bu esa bemorlarda norozilik, tibbiy xizmat darajasi va tibbiyot xodimlari haqida noto'g'ri xulosalarga kelishga sabab bo'ladi.

Tibbiyot xodimlari sotsial-psixologik kompetentligini kasbiy faoliyatda rivojlanish bugungi kunda kasbiy vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Shuningdek, "kompetentlik" fenomeni o'z davrida faylasuflarning turli davrdagi izlanishlarida o'z aksini topganligini kuzatish mumkin. Sharq mutaffakirlari Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Navoiy o'z asarlarida, insonlarni tushunish, muloqotmandlik, suhbatdoshning xulq-atvori, xatti-harakatlari, kechinmalariga nisbatan adekvat sezuvchanlik, axloqiy ustanovkalar kabi sifatlarining namoyon etilishini yuqori darajadagi axloqiy sifatlar deb ta'riflaganlar.

Tibbiyot xodimlari ziddiyatli vaziyatdan chiqishi uchun quyidagi qoidalarini hisobga olishi kerak.

Avvalambor tibbiyot xodimlari ziddiyatni bartaraf etishi kerak.

Xatti-harakati bilan sherigiga ta'sir qila olishi kerak. (bemorga, hamkasbiga).

Suhbatdoshning xatti-harkati, yuz bergan vaziyatni tushunmasdan turib, xulosa chiqarishga shoshilmasligi kerak.

Maqsadga kelishishi, ya'ni bemor bilan bog'liqlikni iloji boricha avvalroq anglab olishi muhimdir.

Xulosa to'g'ri chiqarilganligiga hammani ishontira olishi lozim.

Tibbiyot xodimlarining sotsial-psixologik kompetentligini muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan unda psixologik qobiliyatni mavjudligiga, mahoratiga bog'liq bo'ladi. M.M.Kabanov o'z ilmiy izlanishlarida, tibbiyot xodimlari kommunikativ komponentligini muvaffaqiyati ularning nutq qobiliyatini rivojlanganligida deya ta'kidlaydi. Muloqotda nutq qoidalarini samarali egallanganligi, tibbiyot xodimlarini kompetentligini rivojlanishining muhim omili sifatida e'tirof etadi.

Diksiya – talaffuz tarzi, talaffuzni aniq ravshanligi darajasi.

Tibbiyot xodimlari uchun to'g'ri talaffuz - eng kerakli qurol hisoblanadi, chunki tibbiyot xodimlari bemorlarni tushunishi uchun nutqi, talaffuzi ravon, har bir bo'g'in, so'z va tovushlarni aniq aytishi kerak.

Ritmika – ovoz maromi yoki vazni. Ba'zi bir so'zlarning, bo'g'inlarning talaffuzi, ularning tezligi nutqning sur'atini tashkil etadi. Ovoz tezligi har bir bemorning fazilati nutq mazmuni va muomala vaziyatiga bog'liq.

Pauza, temp va nutqning yoqimli bo'lishi nutq ohangini tashkil etadi.

Bir ohangda nutq zerikarli bo'lib, qiziqish va diqqatni pasaytiradi.

Demak, tibbiyot xodimlari ovozi ravon, jarangdor, aniq va o'ziga jalb etadigan bo'lishi kerak. Vaziyat qiyinroq joylarni ovozi seinlangan holda tushuntirib, qolgan vaqtda tezroq gapirishi mumkin. Ayniqsa

kasallik haqida gapirgan vaqtda, ya'ni qoida, qonun, aqidalarni ifodalashda ovoz tezligini kamaytirish kerak. Xulosa qilib aytaganda, har bir tibbiyot xodimlarida nutq madaniyati bo'lishi zarur, chunki har bir tibbiyot xodimlari o'z nutqi, chiroyli va ravon, muomala madaniyati bilan boshqalarga namuna bo'ladi. Tibbiyot xodimlari doimo o'zining nutq madaniyati ustida ishlashi va takomillashtirib borishi zarur.

Hozirgi kun tibbiyot xodimlari o'z qarashlari shakllangan, keng fikrga ega, ijodkor, qobiliyatli, egallagan bilimlarini hayotga tadbiq eta oladigan davr talabiga mos yashaydigan, mehnat qiladigan, madaniyatli, odob-axloqli, odamgarchilik xususiyatlarga ega bo'lgan, sotsial-psixologik kompetentlikka ega bo'lishi lozim.

Amerikalik tadqiqotchilar L.Stross va J.Morenolar kompetentlikni shaxsning ixtisosligi bo'yicha aniq faoliyatni bajarishda zarur bo'ladigan qobiliyatlar majmui, malakalarning namoyon bo'lishi ma'suliyat hissining mujassamlashuvi natijasida paydo bo'ladigan tafakkur turi deb tavsiflaydilar. Bir qator olimlar sotsial-psixologik kompetentlikni kasbiy bilimdonlik bilan bog'lab tushuntirishga intiladilar.

Bugungi kunda tibbiyot xodimlari faoliyatida sotsial-psixologik kompetentlik omillarining o'rni va uning kasbiy faoliyat samaradorligiga ta'siri masalalarini ilmiy jihatdan o'rganish, tadqiq qilish, tibbiyot xodimlarining kasbiy va shaxsiy taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan ilmiy-amaliy ishlar ko'lamini yaratish imkonini beradi.

Tibbiyot xodimlari faoliyatiga qo'yiladigan talablar mahsuldorligi ekanligi ko'p hollarda sotsial-psixologik kompetentlikka bog'liqdir. Bu esa tibbiyot xodimlarini o'zini anglashga imkoni beradi. Tibbiyot xodimlarining sotsial-psixologik kompetentligi shakllanganligi emotsional-irodaviy sohasining psixologik rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatishga, bilish faoliyatini faollashuviga, ko'nikma va malakalarni shakllanishiga, atrofdegilar bilan o'zining ijtimoiy rollarining identifikatsiyalashuvini va ijtimoiy muhitda ijtimoiy timsol hamda mustaqil o'zaro ta'sirlashuvini tuzatishga ko'maklashish bilan ahamiyatlidir.

Bundan ko'rinadiki, kasbiy faoliyatida sotsial-psixologik kompetentlikning ahamiyatini psixologik jihatdan tadqiq etishda yuqorida sanab o'tilgan psixologik jabhalarga tayanish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'uxati

Бочарникова М.С. Понятие «Коммуникативная компетенция и его становление в научной среде» (Ян Ван Эк., Л.Ф.Бахман, Д. Хаймс) // Молодой учёный.-2009.-№8.-С.130-142

Ганиева Э.И. Формирование индивидуального стиля общения подростков учебно-воспитательном процессе. Дис. ... канд. психол. наук. – Т.: 2002. – 160 б.

Геранюшкина Г.П. Социальный интеллект: Методики оценки и развития. –Иркутск: Издательство БГУЭП,2003.– 222 с.

Ермалаева Е.П. Психология социальной реализации профессионала. М.:Изд-во «Институт психологии РАН», 2008.347 с.

Jabborov A.M. Pedagogik texnologiyaning etnik asoslari. – Toshkent: “Zarqalam”, 2006. – 48 b.

Jabborov A.M. O'zbek maktabi o'qituvchisining psixologik va etnik xususiyatlari: Psixol. fan. dok.... dis. – Toshkent: 1999. – 317 b.

Ibodullayev Z.R. Asab va ruhiyat. 4-nashr. Ilmiy-ommabop risola. – T., 2019. –352b